

## A. QAHHORNING "BOSHSIZ ODAM" HIKOYASIDA MUALLIF POZITSIYASI VA ROVIY FUNKSIYASI

Dilnozaxon Murotova Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7041683>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada A.Qahhorning "Bosh siz odam" hikoyasidagi muallif pozitsiyasi va roviy funktsiyasi haqida so'z yurtildi. Hikoya real voqelikni badiiy voqelikka aylantirishdagi muallif mahorati, tasviriy vositalar: o'xshatish, qiyoslash, kinoya kabi badiiy tasvir vositalardan foydalanish mahorati, yozuvchining so'z qo'llash mahorati, hikoya strukturasidagi roviy funktsiyasi, o'quvchi va kitobxon munosabatlarini amalgga oshirishdagi uning vazifasi, o'zgalarining kiritma luqmalari, ularning asar strukturasidagi o'rni va ahamiyati, hikoya janrida roviyning betaraf, tarafkashlik pozitsiyasi, obrazlar haqidagi ma'lumotni kitobxonga asosli va tez yetkazish usulining xarakterlar shakllanishidagi muhimligi masalasi, kitobxon kutgan voqealarning syujetda ro'y bermasligi, kitobxonning fabulani bilishga bo'lgan qiziqishini topa bilish, tasvirda qo'llanilgan kontrast usulining muhimligi, uni matnda ishonarlilikini ta'minlash kabilar haqida fikr yuritiladi va ilmiy xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, muallif, janr, matn, funktsiya, roviy, pozitsiyasi, muallif, hikoya o'xshatish, kinoya, badiiy tasviri, matn.

## ПОЗИЦИЯ АВТОРА И ФУНКЦИЯ РАССКАЗЧИКА В РАССКАЗЕ «ЧЕЛОВЕК БЕЗ ГОЛОВЫ» А. КАХХОРА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается позиция автора и функция рассказчика в рассказе «Человек без головы» А. Каххора. Мастерство автора в превращении реальной действительности в художественную в рассказе, образные средства: умение использовать такие художественные средства, как сравнение, сопоставление, ирония, умение писателя в использовании слова, функция рассказчика в структуре рассказа, его роль в реализации отношений между учащимся и читателем, введение других, их место и значение в структуре произведения, нейтральная и необъективная позиция рассказчика в повествовательном жанре, значение способа передачи информации читателю разумно и быстро в формировании характеров, о том, что в сюжете не происходят ожидаемые читателем события, делаются фабульные научные выводы читателя о важности метода контраста, используемого в изображении, обеспечивающем его правдоподобность в тексте.

**Ключевые слова:** рассказ, автор, жанр, текст, функция, рассказчик, позиция, автор, сравнение, ирония, художественный образ, текст.

## THE POSITION OF THE AUTHOR AND THE FUNCTION OF THE NARRATOR IN THE STORY "THE MAN WITHOUT A HEAD" BY A. KAHKHOR

**Abstract.** This article discusses the position of the author and the function of the narrator in the story "The Man Without a Head" by A. Kahkhор. The author's skill in turning reality into fiction in the story, figurative means: the ability to use such artistic means as comparison, comparison, irony, the writer's ability to use the word, the function of the narrator in the structure of the story, his role in realizing the relationship between the student and the reader, introduction others, their place and significance in the structure of the work, the neutral and biased position of the narrator in the narrative genre, the importance of the method of conveying

*information to the reader reasonably and quickly in the formation of characters, that the events expected by the reader do not occur in the plot, the reader's plot scientific conclusions are made about the importance the contrast method used in an image to make it appear true to text.*

**Keywords:** story, author, genre, text, function, narrator, position, author, comparison, irony, artistic image, text.

## KIRISH

Badiiy asarda hayotiy haqiqatni badiiy haqiqat aylantirishda roviy asosiy figura sanaladi. Roviylar badiiy asarda muallif kontseptsiyasini amalga oshirishda ham eng asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, hajm jihatidan kichik janr bo'lgan hikoya janrida roviyning funktsiyasi muhimligi bilan ajrab turadi. "Struktural nigoh yakka hodisaga qaratilganda uning ichki va quyi qatlamlariga kirish, voqealarning ramzlashuv darajasini aniqlash, avval ko'zga tashlanmagan ma'no o'choqlarini ko'rgazmali tarzda ochish imkoniyati tug'iladi". [ 1.66.]

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

A.Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasi badiiy jihatdan mukammal asarlaridan biri sanaladi. Hikoya roviy nutqi bilan boshlanib, unda Niso buvi haqida ma'lumot keltiriladi. Muallif tasvir bayonida aniq ma'lumotlar keltirish bilan birga, ikkilanish, gumonsirash tendentsiyasilarini ham berib boradi. Syujetning keyingi qismlarida ikkilanish ohangi kuchayib boradi. Roviylar nutqida: "Bunga hamma ham hayron qoldi. Bu to'g'rida ba'zilar: Niso buvi ilgari ham usta Abdurahmon bilan don olishib yurar ekan,— degan gapni qilishdi, ba'zilar: "Bechora nima qilsin ikkita bolasi bor, usta Abdurahmonning ham o'lgan xotinidan o'g'li bor. Vaqt kelganda tili qisilmaydigan ish qilibdi-da," deyishdi" [ 2.258.]

Yuqoridagi roviy nutqida metaforik matn qo'llanilib, u o'zgalar gapi tarkibida berilib, syujet davomida matnning asl ma'nosini ochilib boradi. Niso buvi haqidagi ma'lumotdagi noaniqlik, gumonsirash, ikkilanish tendentsiyalari sekin-asta o'quvchiga ham yuqadi. O'zgalarning Niso buvi haqidagi aytgan gaplari obraz to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada to'ldiradi, aniqlik kiritadi. Bu kabi kiritma luqmalar roviy berayotgan ma'lumotni to'ldirish bilan birga, qahramon xarakterini shakllantirishga ham yordam beradi. Roviylar ma'lumotlaridan ko'ngli to'lmay, ikkilanib turgan o'quvchi o'zgalar gapidan so'ng aniq ma'lumot oladi. Qahramon haqidagi ma'lumotni tez va asosli yetkazishga harakat qilayotgan roviyga o'zgalar tomonidan aytilgan bu kabi xabar yordam beradi. Roviylar nutqida berilgan frazeologik iboralar nutqni aniq, lo'nda, ta'sirchanligini ta'min etadi. Masalan, "Niso buvi don olishib yurar ekan. Vaqt kelganida tili qisilmaydigan ish qilibdi-da" kabilalar shular jumlasidandir. Keltirilgan kiritma ma'lumotlar yozuvchining "Mayiz yemagan xotin", "To'yda aza" hikoyalari ham uchraydi. "Uning xotini mayiz yemagan," degan o'zganining gapida juda katta tagma'no yashiringan bo'lib, metaforik matn hisoblanadi. Aslida so'z xotinining mayiz yemaganligi xususida emas, uning axloqan buzuqligi haqida ketadi. "To'yda aza" dagi "Qarigan chog'ida xo'rozqand yalamay, domla ham o'lsin" degan luqma ham shular jumlasidandir. Hikoyalarda keltirilgan o'zgalar luqmasi syujetdagi voqealarni rivojlantiradi, roviy nutqini asoslaydi, obrazlar xarakterini shakllantiradi.

Badiiy matnni tushunarli bo'lishiga monelik qiladigan ortiqcha "shovqin" lardan xalos etadi. "Abdurahmon yuborgan sovchi Niso buviga shunday dedi: "Sizda ikkita bola bo'lsa, u kishida bitta bola bor. Bularning yegan-ichgani qayoqqa borar edi. Bular uchun alohida qozon osilarmidi. Siz hammasining onasi, u kishi ota. Usta bolani juda yaxshi ko'radilar." Adibning

aksariyat hikoyalarida uchraydigan o'zgalarning kiritma luqmalarida ironiya ma'nosi yetakchilik qiladi. Bu kabi kirimalar hikoya mazmuniga ijobiy ta'sir etadi. "O'zga kim, u nima ish bilan shug'ullanadi, ishtirokchilarga uning qanday aloqasi bor?" – tarzidagi savollarga javob berishga o'rin qolmaydi. Kitobxon o'zgalarning gapini hech ikkilanmay qabul qiladi. SHuning uchun A.Qahhor asarlarida uchraydigan bir kishi, bir xotin singari kiritma obrazlar tilidan berilgan ma'lumotlar asar syujetida muhim sanaladi. Ba'zan keltirilgan kiritma luqmalar asar voqealarini davom ettirishga asos bo'ladi. Masalan, matnda keltirilgan sovchi nutqi: "Usta bolani juda yaxshi ko'radilar." jumlasining aksi hikoyaning keyingi qismida, aksincha, Abdurahmon Niso buvining qizlarini jazolashi bilan yakun topadi. Dastlabki voqealardan Abdurahmonni yaxshi inson deb tanib borayotgan o'quvchi jumla isbotini syujetdan topmagach, unda bu obrazga nisbatan salbiy qarash kuchayadi. Kitobxon kutgan holat yuz bermagach, uning fabulani bilishga bo'lgan istak va qiziqlishi yanada ortadi. Tasvirda qo'llanilgan kontrast usuli muallif tomonidan ataylab kitobxonga ta'sir etish usuli sifatida qo'llanilgan topilmadir. Yozuvchining juda ko'p asarlarida ishtirok etgan tayyor xarakterlar bu hikoyada ham ishtirok etadi. Ular nutqidagi (o'zgalar nutqi) frazeologik iboralar kitobxon tasavvurlarini boyitishga, obrazli mushohadalar hosil qilishga yordam beradi. Berilgan iboralar Niso buvi holatini mukammal ko'rsatishdan tashqari, obrazni navbatdagi intrigaga tayyorlaydi. Niso buvi Abdurahmon bilan birga to'qqiz yil yashasa-da, uni o'z eri sifatida tan olmaydi. Abdurahmon Niso buviga er sifatida hech qanday mehr ko'rsatmaydi, qizlarini esa "Razzoq yamoqchining qizlari" sifatida biladi. Roviy nutqida berilgan "er bilan maslahatsiz" jumlesi Niso buvi va Abdurahmon munosabatlarini konkretlashtiradi. Niso buvi Abdurahmon bilan "majburiyat" asosida yashaganligi uchun ham muallif tomonidan "er bilan" jumlesi keltiriladi. Adib har bir so'zga badiiy -estetik vazifa yuklaydi. Har bir so'z obraz xarakter mantig'idan va muallif niyatidan kelib chiqib ifodalanadi. Roviy nutqida birgina egalik qo'shimchasi "i"ning berilmasligi Abdurahmon-xotinlik rishtalari yo'qligini ko'rsatadi. Demak, muallif ijodida nafaqat so'z, jumla, hattoki birgina tovush va qo'shimcha ham badiiy-estetik funktsiya bajarishini hikoya matnida kuzatdik. Matndagi har bir qo'shimcha va jumla asar struktursida kontseptual ahamiyatga ega ekanligi ko'zga tashlanadi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Hikoya syujetida keltirilgan roviyning navbatdagi bayoni badiiy estetik qimmati jihatini jihatidan yuqoridaqilardan kam emas. "Usta Abdurahmon qizlarni ko'p urdi. Bir kuni Niso buvi: Ursangiz o'sha do'koningizga olib borib uring" deganida, usta Abdurahmon: "Ha, joning achiydimi, bundan keyin men urayotganimda kulib turmasang, uch taloqsan." deb yubordi. SHundan so'ng Niso buvi ko'p martalab "kuldi" [ 2.258.]

Hikoyada roviy tafsilotlarga berilmaydi, keltirilgan "kuldi" so'zi matnda ko'chma ma'noda kelib, hikoya struktursida badiiy-estetik funktsiya bajaradi. Ko'chma ma'nodagi so'zlarning berilishi roviy nutqining o'ziga xosligini ta'minlaydi. SHu birgina so'zda Niso buvining ichki iztiroblari, armonlari tajassumi bor. Syujetda intrigue kuchaytiriladi, kitobxonni Abdurahmon haqidagi tasavvurlari oydinlashadi, hikoyaning dinamik shiddati oshadi. Biroq syujetda dramatizm kuchaysa-da, xarakterlararo konflikt yuz bermaydi. Demak, adibning so'z qo'llash mahorati, bir so'z bilan juda ko'p ma'noni kitobxonga yetkaza olish usuli yozuvchi ijodida tamoyil darajasiga ko'tarilgan. Bu kabi usullar asar syujetini amalga oshirishda, kompozitsiyaning mukammalikka erishishida muhim sanaladi. Ironiya stilistik usul sifatida so'zning ikki xil leksik ma'nosiga ega bo'lib, asosiy ma'nosi badiiy matnda oydinlashadi. Avtor ironiyasini ifodalagan "kuldi" so'zi o'zining aks ma'nosini ifodalab, Niso buvi juda ko'p

marotaba xafa bo'lgani, qizlari ko'p marta Abdurahmon tomonidan kaltaklangani bildiradi. Qizlar qay tarzda, qanday jazolangani matnda berilmaydi. Tafsilotlarning barchasi birgina "ko'p marta "kuldi" jumlasida o'z ifodasini topadi. Bu holatni har bir kitobxon individual tarzda, kontekstdan tashqarida, o'z tasavvurlarida gavdalantiradi. Bu kabi vaziyatlarni kitobxon ixtiyoriga qoldirish adibning juda ko'p hikoyalarida uchraydi, ijodiy tamoyilning bu ko'rinishi hikoya janri talabini amalga oshirishda muhim sanaladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, muallif rivoya tarzi shakllanishida dialoglarning ahamiyati juda kattadir.

## MUHOKAMA

Biroq "Boshisiz odam" hikoyasida dialoglar keskin konfliktlar asosiga qurilmaydi. Niso buvi va Abdurahmon o'rtasida "Anor" hikoyasidagi kabi konflikt yuz bermaydi. Niso buvi va Abdurahmon o'rtasidagi vaziyatni to'g'ri baholagan muallif roviy nutqida berilgan birgina "ko'p marta "kuldi" jumlasini keltirish bilan maqsadiga erishadi. Xarakterlar o'rtasidagi to'qnashuvda Niso buvi xarakteridagi erksizlik, tobelik Abdurahmon bilan yuzma-yuz kurashishni amalga oshirishga izn bermaydi. Uning muteligi, ayol sifatida qadrlanmasligi, eridan qo'rqliki, "joni achiganda" ham "kulish"ga mahkumligi xarakterlararo konfliktni yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Syujetdagi badiiy konflikt Niso buvi kechinmalari orqali amalga oshiriladi, qahramonning ichki iztiroblari bevosita o'quvchi shuuriga ko'chadi. Aynan shu ijodiy usul voqealikni badiiy idrok etishda xarakterlar mantig'ini hisobga olish zarurlagini anglatadi. Ammo syujetda lar rivoji va badiiy konflikt roviy rioya tarzi asosida amalga oshiriladi. Har ikkisining rivojlanishiga asos bo'lgan narsa, bizningcha, roviy nutqining izchilligi, unda qo'llanilgan tasviriy ifodalar hisoblanadi. Natijada, kitobxon voqe-hodisalarni idrok etadi, obrazlar holati va harakatlari bilan tanishib boradi.

Syujetda keltirilgan navbatdagi roviy nutqi xarakterlarni ochish va badiiy matn bayonida lar rivojini ta'minlash uchun xizmat qiladi. "Ha, ikkovining ham boshi omon bo'lsin" jumlasida "Mehrini Faxriddinga bermayman, o'g'ling qizimning tengi emas", degan Niso buvining ichki nidosi kontekst tagzaminida mavjud. Muallif yana roviy nutqida o'z kontseptsiyasini asoslash uchun "bu yo'q" degani edi" jumlasini keltirib, Niso buvi nutqiga aniqlik kiritadi. Agar Niso buvi niyatini Abdurahmonga oshkor bayon etganida edi, uning boshiga bundan-da, battar balolar yog'ishi tayin edi. SHuning uchun u erining savoliga aniq javob bermaydi. ifodada pragmatik to'siq mavjud bo'lib, "kosaning tagida nimkosa" tarzida qahramon nutqi shakllanadi. Hikoya matnida berilgan sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar xuddi "Anor" va "O'g'ri" hikoyalaridagi kabi juda katta kompozitsion vazifani bajaradi. va voqe-hodisalarning badiiy matnda aks etishi murakkab ijodiy jarayon bo'lib, yozuvchidan mahorat va tajriba talab etadi. Goh roviy, goh obrazlar nutqida berilgan yuqoridagi ta'sirchan kalit so'zlar avval ta'kidlaganimizdek, hikoya vertikal ko'priklar hosil qiladi. Har bir abzatsda roviy tomonidan keltirilgan aniq gaplar aynan shu abzatsda sharhlanadi, keyingi abzatsdagi gaplar birinchi abzatsdagi gaplarning izohi sifatida keltiriladi. Roviyning hikoya strukturasidagi keyingi funktsiyasi shu kalit so'zlar vositasida belgilab qo'yilgandek ko'rindi. Abzatsdan abzatsga o'tish jarayonida **voqealar**, obrazlar harakati, roviy tafsilotlarining barchasi sodda gaplarning izohi sifatida abzatslarga xuddi "spektor nurlari" ga o'xshab yoyilib ketadi. Masalan:

1. Niso buvi eri o'lib, ikki yosh qizi bilan qoldi.
2. Usta Abdurahmon yuborgan sovchi Niso buviga shunday dedi.
3. Usta Abdurahmon qizlarni ko'p urdi. To'y o'tdi.
4. Qanday bo'lsa ham, bolani tushirish kerak.

5. Niso buvi besh kun deganda ishning natijasini ko'rdi.
6. Mehri xuftonga yaqin kasalxonaga yuborildi.
7. Mehri kasalxonadan chiqqandan keyin Niso buvi ikkala qizi bilan bosh olib chiqib ketdi.

Yuqorida berilgan gaplar o'z-o'zidan hikoya voqeligini bayon etishga asos bo'ladi. Keltirilgan gaplar yig'indisini hikoyaning qisqacha fabulasi ham deyish mumkin. Aynan shu gaplar yozuvchi badiiy g'oyasiga prizma vazifasini o'taydi va ulardan taralgan "spektr nurlari" asar voqelik manzarasini konkret anglab yetish uchun kitobxon e'tiborini jalb qilib, hikoya yechimi tomon yo'naltiradi.

Abdulla Qahhor uslubining eng muhim jihatni, roviyning qisqa va aniq bayoni bilan kitobxon tasavvurlarini boyitishdan iboratdir. Roviy nutqidagi ironik ifodalar hikoya syujetining o'qimishli bo'lishini ta'minlash bilan birga, muallifga xos badiiy-g'oyaviy kontseptsiyasini ham beradi. Hikoyadagi asosiy obrazlardan biri bo'lgan Faxriddinni bir-ikki gapirtirish va xatti-harakatlariga berilgan qisqa izohlar u haqida kitobxonga aniq ma'lumot bera oladi. Hikoyaning "Boshsiz odam" deb nomlanishining o'zi dastlabki jumboq bo'lib, "Nahotki, boshsiz odam bo'lsa?" – degan o'y-xayol kitobxonni ohanrabodek o'ziga tortib, tezroq o'qishiga sabab bo'ladi. Syujet bilan tanishib borish jarayonida: "Syujetning qaerida boshsiz odamni uchratar ekanman?" – degan savol hamisha o'quvchiga hamrohlik qiladi. "Boshsiz odam kim?" degan jumboq hikoya davomida ikki parallel hodisa orqali yoritib beriladi. Bularidan birinchi moddiy hodisa – boshsiz chaqaloqning tug'ilishi bo'lsa, ikkinchi ma'naviy hodisa – Faxriddining o'zining fahm-farosati, kallasi yo'qligi, "boshsiz" ekanligining fosh bo'lib borishidir. Bu mantiqiy asoslar Faxriddin o'z fikri yo'qligi, otasi chizgan chig'iqdan chiqmasligi, hatto otasi o'rgatgan ikki og'iz gapni ham uddalab aytolmasligida ko'rindi. Roviy tilidan: "Faxriddin erka o'sgan tantiq bola", – deb qisqa axborot berish bilan chegaralaniladi. Obrazning keyingi xatti-harakatlarida keltirilgan mantiqiy xulosa o'z ifodasini topadi. Faxriddin so'z va harakatlari, qiliqlari bilan o'quvchining u haqidagi salbiy tasavvurlarini to'ldira boradi. Niso buvining: "Faxriddin hali yoshsizlar. Uch-to'rt yil bolasiz yurish yaxshi. Doktor shu ishlarni bilarmikan?" – degan savoliga ham, "Men bilmasam, dadam biladilar", – deb, hatto farzand ko'rish va ko'rmasligini ham dadasidan so'rashi, o'z aqli yetmasligini oshkor qilib qo'yadi. Faxriddin Niso buviga shu javobni aytishdan oldin roviy tomonidan quyidagi tasvir keltiriladi. "Faxriddin osilib turgan qalin labini bir-ikki qimirlatib, bilagi bilan burnini artib javob berdi". [2.259]

Roviy pozitsiyasining to'g'ri va muvafaqqiyatlari tanlanganligi va portret tasvirida aniq salbiy chizgilarning berilishidan yanada ayonlashadi. Natijada, tayyor, o'ziga xos xarakterlarning lardagi ishtiroki muallif ijodiy tamoyilining bir ko'rinishi sifatida zohir bo'ladi. Tayyor xarakterlarning badiiy matndagi ishtiroki birinchidan, qahramonlar portretidan unumli foydalangan bo'lsa, ikkinchidan, roviy zimmasiga o'ziga xos aniq kompozitsion funktsiya yuklaydi. Uchinchidan, hikoya janri talabidan kelib chiqib abzatslarga syujet-kompozitsion vazifalar yuklay oladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) janr tabiatidan kelib chiqib abazatslarga epik bayonni singdira olish; 2) harakatlarning badiiy matnda keng qamrovligini ta'minlash; 3) o'zgaruvchan makon va zamon, voqealarining bir-biriga payvandlay olishida.

## XULOSA

Portret tasviridagi yuqoridagi chizgilar A.Qahhorning juda ko'p asarlarida uchraydi. Aniq chizgilar asosida berilgan portret tasviridan kitobxon obrazning qanday odam ekanligini bilib oladi. Niso buvi o'z qizini Faxriddinga turmushga berishga rozi bo'lmasligining asosiy portret

tasviridan so'ng oydinlashadi. Hikoya syujetidagi obraz haqida roviy tafsilotlar berilmagan bo'lsa ham, roviy rivoyasidan kitobxon aniq ma'lumotga ega bo'ladi. Ular har birining betakror qiyofa va sa'jiyalarini ko'rib, muallifning yuksak mahoratini his etamiz. Roviylar davomida obrazlar xarakterini shakllantirib, ularning harakat va holatlarini ko'zdan qochirmaydi. Faxriddin xarakteriga xos jihatlarni roviy yordamida kasalxonadagi suhbatdan bilib olamiz. Bo'lib o'tgan suhbat Faxriddinning tom ma'nodagi bosh siz odam ekanini ko'rsatib beradi. "Mehri: Kundankun battar bo'lgan edim, olib tashlashdi. Naqd o'layozdim" desa, "Hayriyat" dedi Faxriddin og'iz va ko'zlarini katta ochib, **bolaning ham boshi bo'lmaydimi!**...(ikkilanish-ta'kid bizniki-I.R) **Dadamdan so'raychi.**" [ 2.260.]

(ilhaqlik-ta'kid bizniki -I.R) Roviylar bayonida berilgan badiiy ottenkaga boy so'zlarning Faxriddin nutqida qo'llanishi kitobxonga emotsiyallik bag'ishlaydi. "Uning gaplariga qulq solib, **raftorini** (ta'kid bizniki -I.R) kuzatib turgan hamshira, "Kasalni toliqtirib qo'yasiz, – dedi va eshikni ko'rsatdi" [ .261]

Faxriddin hamshira eshikni ko'rsatmaguncha, o'tirgan joyida o'tiraverdi. Nafaqat, roviylar bayonida, balki obrazlarning bir-ikki luqmalaridan ham ularning saviyasi, dunyoqarashi haqida kitobxon to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Hikoya yechimida: Niso buvi ikkala qizi bilan boshini olib chiqib ketdi", – deb keltiriladi. "Boshini olib chiqib ketdi" – iborasida Niso buvi bu uysa hech qachon qaytmaydi, hech narsadan umidvor ham emas ma'nosi anglashiladi. Roviylar ushbu hikoyada asosiy tasvir bayonini o'z qo'liga oladi va muallif niyatini amalga oshiradi. Aynan kasalxona si go'yo Faxriddinning barcha qusurlarini ko'rsatuvchi "kichik mukammal "sahna"ga o'xshaydi. Roviyning psixoligivistik nutq bayoni ham hikoyadagi obrazlar xarakteri ochilishida katta yordam berdi. "Mulla Abdurahmon ko'pdan beri Niso buviga: "Mehrini Fixriddinga qilamiz" – deb yurar edi. Faxriddin erka o'sgan tantiq bola bo'lganligi uchun Niso buvi: "Ha, ikkovining ham boshi omon bo'lsin" – deb qo'ya qolar, bu "yo'q" degani edi". Badiiy matnda so'zlar vositasida berilgan axborot har doim ham aniq ma'lumot sifatida qabul qilinmaydi. Verbal (so'zlar yordamida fikrni ifodalash) matnda berilgan "Mehrini Faxriddinga qilamiz" mazmunidagi gap matn bilan to'liq tanish bo'lмаган kitobxon aniq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Uni aniq kengaytirilgan shakli: Fixriddinga Mehrini xotin qilib olib beramiz" shaklida bo'lishi kerak edi. Badiiy asarlarda muallif o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrini ko'proq roviylar zimmasiga yuklaydi. Roviylar asarning gorizontal va vertikal tomonlarini tutashtiruvchi o'q sanaladi.

Shunday qilib, "Bosh siz odam" hikoyasidagi muallif pozitsiyasining xilma xilligi va roviylar funktsiyasining badiiy asar strukturasidagi o'ziga xosligi masalasida yuqorida maqoladi to'xtalib o'tildi va ilmiy-nazariy xulosa chiqarildi!

## REFERENCES

1. Miliev S. (Suvon Meli). Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi: Fil. fan. dok-ri (DSc.) diss... – Toshkent, 2019. –B.66.
2. Qahhor Asarlar. Besh jildlik. Beshinchchi jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. –B.302.